

CHO‘LLANISH TUSHUNCHASI VA UNGA BERILGAN TARIFLAR TO‘G‘RISIDA

Adilova Ozoda Amonovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Geografiya kafedrası dotsenti
Jizzax shaxri

Annotatsiya. Maqolada cho‘llanish jarayoni, uning keltirib chiqaruvchi sabablar va oqibatlari, olimlar tomonidan cho‘llanishga berilgan turli tariflar o‘rganilgan. Budan tashqari, tadqiqot ishida cho‘llanish va qurg‘oqchilikka qarshi kurashish bo‘yicha innovatsion loyihalarni ishlab chiqarishni keng targ‘ib qilish, mahalliy aholining cho‘llanish va qurg‘oqchilikka qarshi kurashish bo‘yicha xabardorligini oshirish, hamda yerlardan barqaror foydalanishni amalga oshirish dasturlarini ishlab chiqib va amaliyotda qo‘llashni kabi muammolar tadqiq qilingan.

Tayanch tushunchalar. arid, cho‘llashish, degradatsiya, ko‘lam, yaylov, ekosistema, geosistema, eroziya, ekologik qochoq, ekotizim, intensiv, gumus.

О ПОНЯТИИ ОПУСТЫНИВАНИЯ И ДАННЫХ ЕМУ ОПРЕДЕЛЕНИЯХ

Адилова Озода Амоновна
Джизакский государственный педагогический университет
Доцент кафедры географии
г. Джизак

Аннотация. В статье исследуется процесс опустынивания, его причины и последствия, а также различные тарифы, взимаемые учеными за опустынивание. Кроме того, в исследовательской работе были исследованы такие проблемы, как широкое продвижение инновационных проектов по борьбе с опустыниванием и засухой, повышение осведомленности местного населения о борьбе с опустыниванием и засухой, а также разработка и практическое применение программ по внедрению устойчивого землепользования.

Ключевые слова: засуха, опустынивание, деградация, масштаб, пастбища, экосистема, Геосистема, эрозия, экологическая деэртирство, экосистема, интенсивный, гумус.

ON THE CONCEPT OF DESERTIFICATION AND THE DEFINITIONS GIVEN TO IT

Adilova Ozoda Amonovna
Jizzakh State Pedagogical University

Abstract: The article examines the process of desertification, its causes and consequences, as well as the various tariffs charged by scientists for desertification. In addition, the research work explored issues such as the widespread promotion of innovative projects to combat desertification and drought, raising awareness of the local population about combating desertification and drought, as well as the development and practical application of programs for the introduction of sustainable land use. Basic concepts. drought, desertification, degradation, scale, grazing, ecosystem, geosystem, erosion, ecological desertion, ecosystem, intensive, humus.

Key words: *drought, desertification, degradation, scale, pastures, ecosystem, geosystem, erosion, ecological desertion, ecosystem, intensive,*

Kirish. Cho'llanish - geografik va ekologik jarayon bo'lib, quruq va yarim quruq hududlarda tuproqning yemirilishi va unumdorligining yo'qolishi, ulardagi organik hayotning barcha shakllari yomonlashadi va natijada tabiiy-iqtisodiy imkoniyatlarning pasayib ketishiga sabab bo'ladi. Bu jarayon inson faoliyati va iqlim o'zgarishlari ta'sirida yuzaga keladi va cho'l hududlarining kengayishiga olib keladi. Cho'llanish tabiiy va antropogen (inson faoliyati) omillar ta'siri natijasida paydo bo'ladi. Eng asosiy omillar qatoriga o'rmonlarning kesilishi, iqlim o'zgarishi, noto'g'ri sug'orish, chorvachilikning ko'payishi va boshqalar kiradi. Oqibatda cho'llanish ta'sirida qishloq xo'jaligi ekin maydonlari va yaylovlar yomonlashadi, bu esa qishloq xo'jaligi va ekotizimlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi vaqtda insoniyat oldida turgan yirik ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy muammolardan biri - cho'llanish jarayonidir. Ushbu jarayonni keltirib chiqaruvchi asosiy omillardan biri bu aholi sonining uzluksiz ko'payib borishi va texnik taraqqiyot cho'llanishni ko'lami bo'yicha kengayishi va jadallashishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omil hisoblanadi. Albatta bu joyning relyef tuzilishi bilan bevosita bog'liqdir. Cho'llanish jarayoni deyarli barcha qit'alarda, ko'proq Afrika, Osiyo, Avstraliya va Janubiy Amerikaning qurg'oqchil iqlimli hududlarda kuzatiladi.

Asosiy qism. Bu jarayon tekisliklarda tog' va tog' oldi hududlarda turlicha ko'rinishda namoyon bo'ladi. Chunki ushbu hududlarga atmosfera yog'inlarining tushishi va ulardan aholining foydalanish darajasi va iqlim elementlarining ham ta'siri doirasi va ko'lami xar hil bo'ladi. Tekislik hududlaridagi yerlardan dehqonchilikda (sug'orma) foydalanilsa, tog' va tog' oldi hududlaridagi yerlardan asosan dehqonchilik (obikor), yaylov xo'jaligida, tog' kon sanoati va boshqa maqsadlarda foydalaniladi. Shuning uchun bugungi kunda asosiy antropogen yuk tog' va tog' oldi hududlariga tushmoqda. Respublikamizning uncha katta bo'lmagan janubiy-sharqiy qismi tog' va tog' oldi qismlaridan iborat bo'lsada foydalanish darajasiga ko'ra yuqori o'rinda turadi. Natijada yillar davomida rejasiz foydalanish oqibatida salbiy oqibatlarga olib kelmoqda.

Respublikamizda yuz berayotgan cho'llanish jarayoni uni oldini olish va unga qarshi chora-tadbirlar ishlab chiqish nafaqat tadqiqotchilar balki davlat ahamiyatiga ega bo'lgan muammolardan biridir. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida¹ "odamlarning ekologik xavfsiz muhitda yashashini ta'minlash" va atrof-tabiiy muhit, aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan ekologik muammolarni oldini olish" yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida cho'llanish va qurg'oqchilikka qarshi kurashish bo'yicha ishlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" 2019 yil 22 fevraldagi PK-4204 sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 20 maydagi 538-son "Yaylovlar to'g'risidagi" qonuni va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda tabiiy geografik tadqiqotlar olib borish va ularni amaliyotga tatbiq qilish ishlarini amalga oshirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Bugungi kungacha cho'llanish uning kelib chiqishi sabablari, oqibatlarini oldini olish choralari to'g'risida ilmiy maqolalar, loyihalar, ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan va olib borilmoqda. Ammo ularning barchasi maqola va dissertatsiyalar ko'rinishida qog'ozlarda qolib ketmoqda. Cho'llanish jarayoni bir - ikki oy yoki bir - ikki yil davomida yuz beradigan tabiiy geografik jarayon emas. Tabiatda bunday tabiiy geografik jarayonning yuz berishi uchun ma'lum bir vaqt va davr kerak bo'ladi. Albatta ushbu davrda bo'layotgan hodisani uzluksiz monitoringini olib borish orqali natijani ko'rish mumkin.

Tadqiqotchilar ma'lumotlariga ko'ra cho'llanish jarayoniga bugungi kunda tabiiy va antropogen omillar ta'sir ko'rsatmoqda. O'rganilayotgan hududga qarab bu ikki omil va ularning indikatorlari turlicha ta'sir ko'rsatadi. Tabiiy omillardan asosan shamol, yog'in miqdori asosiy indikatorlar hisoblansa, antropogen omillarga aholi sonining ortishi bilan bog'liq tog'li hududlarda chorva mollari sonining ortishi, dehqonchilik va boshqalar.

Cho'llanish nafaqat, shu jarayon yuz berayotgan hududlarga ta'sir qiladi, balki boshqa hududlarda ham suv resurlarining, biologik xilma-xillikning pasayishiga va iqlimning o'zgarishiga olib keladi. Bu esa dunyoning ko'pgina hududlarida oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining oshishiga, bozor iqtisodiy mexanizmlarining buzilishiga, ijtimoiy va siyosiy voqeylikning oshishiga sabab bo'ladi.

Cho'llanish o'zi nima? Olimlar cho'llanish jarayoniga qanday ta'riflar bergan. Cho'llanish jarayoni deganda, arid mintaqalarda landshaftlarning ya'ni ekosistemalarning yemirilishiga olib keluvchi tabiiy geografik va antropogen omillarning yig'indisi, organik hayot formalarining degradatsiyalashuvi va bu hududlarda tabiiy-iqtisodiy potensialning pasayib ketishi nazarda tutiladi. Bunday hududlarda aholining yashash darajasiga, sog'ligiga katta ta'sir ko'rsatadi, oqibatda aholining asosiy qismining majburiy migratsiyasiga olib keladi.

Cho'llanish atamasiga berilgan ta'riflar tuzilishi bo'yicha turlicha ko'rinishda bo'lishiga qaramasdan ularning mazmuni bir-birlariga yaqin. Respublikamiz va xorijlik

bir qator olimlar tomonidan cho'llanish bo'yicha tadqiqot ishlari olib borilgan va o'rganilgan hududga nisbatan cho'llanishga turlicha ta'rif berilgan.

Jumladan, S.B.Abbosov Cho'llanish bu - atrof muhitdagi hosildor yerlar hosilining kamayishi, degradatsiyalanishi iqlim quruqlashishi, cho'l hududlarning kengayishidir. Umumiy ta'rif beradigan bo'lsak ekosistemlar muvozanatining buzilishidir.

L.A.Alibekov Cho'llanish qurg'oqchil zonalar tabiiy muhit degradatsiyasining kompleks jarayonlari bo'lib, unga tabiiy o'simliklarning yo'qotilishi, tuproqdagi suv va shamol eroziyasi tuproq sho'rlanishi va gumusning kamayish provardida tabiiy ekotizimda biologik mahsuldorlikning kamayishidir.

U.Q. Nazarov cho'llanish landshaft ekotizimlarining kambag'allashuvi, ya'ni ularning biologik mahsuldorligining pasayishidir. Unda tuproqlarning sho'rlanishi ortadi, suv va shamol eroziyasi kuchayadi.

BMTning cho'llanishga qarshi kurashish Konvensiyasi cho'llanish bo'yicha bajarilgan tadqiqotlar va berilgan ta'riflarni umumlashtirib cho'llanishni quyidagicha ta'riflaydi. "Cho'llanish deb - turli omillar, shu jumladan iqlim o'zgarishi va inson faoliyati ta'sirida arid, semiarid va subgumid regionlarda yerlar degradatsiyasiga" aytiladi. Bu ta'rifda yerlar so'zining ma'nosiga tuproqlar mahalliy suv resurslari, yer yuzasi, o'simliklar qoplami (yoki qishloq xo'jalik ekinlari) kiradi.

Dregne (1976) "cho'llanishga arid, semigumid va ba'zi subgumid rayonlarda inson faoliyati va qurg'oqchilikning birga ta'siri tufayli ekosistemalarda ro'y berayotgan jarayondir. Bu jarayon tufayli ekosistemalarda o'simliklar hosildorligi kamayadi, biomassa makro va mikrofaunalar va floralar o'zgaradi, tuproq qoplamining yemirilishi kuchayadi, aholining ish bilan band bo'lishiga xavf tug'iladi" deb ta'rif beradi.

Le Houerou H.N (1972) cho'llanishi – inson faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lib, iqlim o'zgarishining ta'siri kam degan fikrni bildiradi. Uning yozishicha cho'llanish demografik bosimning yoki yukning oqibati bo'lib u chorva mollarning ko'p boqilishi, qumoq tuproqli yerlarda dehqonchilikda antropogen yukning oshishi, daraxtlarning o'tin uchun qirqib yuborilishi, dehqonchilikda mehanizatsiyalashgan ishlovning kengayib borishi bilan bog'liq deb tushuntiradi.

B.G.Rozanov va I.S. Zonn (1980) cho'llanishga quyidagi ta'rifni beradi. "Cho'llanish - quruq o'lkalarda o'simlik va tuproq qoplamining qayta tiklanmaydigan darajada o'zgarishi bo'lib, u hududning yanada aridlanishi va biologik mahsuldorlikning kamayishiga olib keladi, natijada eksterimal holatlarda hududning biosfera potentsiali to'liq buzilib uni cho'lga aylantiradi."

Ularda cho'llanish arid, semiarid va qurg'oqchil subgumid regionlarda inson faoliyati va tabiiy omillar ta'sirida hosil bo'layotgan jarayondir deb ta'riflashadi. So'zsiz, cho'llanish jarayoniga tabiiy sharoitning, ayniqsa arid iqlimning ta'siri katta. Arid iqlim sharoitida hosil bo'lgan cho'llanish tez namoyon bo'ladi va ularning tabiiy holda tiklanishiga ancha vaqt ketadi. Namgarchilik yetarli bo'lgan sharoitda cho'llanish jarayonining jadallashuvi inson xo'jalik faoliyati bilan bog'liq. Shu jihatdan Le Houerou H.N (1972) cho'llanish demografik bosimning oqibatidir deb ta'kidlagani juda o'rinlidir.

Albatta bu ta'riflar barchasi to'g'ri berilgan, chunki har bir ta'rifning asosida o'simlik qoplaminig kambag'allashuvi bilan bevosita bog'liqdir.

Dunyo miqyosining asosiy qismida ham cho'llanishning jadal rivojlanib borishiga aholi sonining uzluksiz ko'payishi va shunga bog'liq holda landshaftlarga antropogen yukning oshib borishi bilan bog'liq jarayon sabab qilib ko'rsatilmoqda. YUNEP ma'lumoti bo'yicha antropogen ta'sir tufayli hosil bo'lgan saxrolar hozirda 9 mln. kv.km. dan oshdi va har yili qishloq xo'jaligida ishlatilayotgan yerlarning 7 mln. gektari cho'llanishga uchramoqda.

Arid hududlar dunyoda quruqlikning 30% maydonini egallaydi, shu hududlarda 145 mln. gektar sug'oriladigan, 170 mln. gektar haydaladigan bahorikor yerlar, hamda 3,6 mlrd gektar yaylovlar mavjud. Ushbu hududlarda yashaydigan aholi soni 860 mln dan ortiq bo'lib, u dunyo aholisining qariyb 15% ni tashkil qiladi. Cho'llanish jarayoni jadal rivojlanayotgan dunyoning yirik arid hududlaridan biri Markaziy Osiyodagi davlatlar hisoblanib, bu yerda 70 mln dan ortiq aholi yashaydi. Aholining uzluksiz ko'payib borishi va tabiiy resurslardan intensiv foydalanish tufayli bu hududda nafaqat tekisliklarda, balki tog'larda ham cho'llanish kuchayib borayotganligi yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Jahon miqyosida arid iqlimli hududlarda ekologik vaziyatning keskinlashib borishi, landshaftlarga ekologik yukni me'yorlashtirishni, monitoring ishlarini uzluksiz amalga oshirib borishni, cho'llanishga qarshi ilg'or texnologiyalarni qo'llashni, yaylov kadastrini ishlab chiqishni, turli tabiiy jarayonlarni aks ettiruvchi va bashoratlovchi mavzuli kartalarni tuzishni vaqt taqozo etmoqda.

Xulosa. Respublikamizda ham cho'llanish jarayoni tekislikdan balandlik qarab tobora o'sib borayotganligini hammamizga ayon jarayondir. Tog' va tog' oldi hududlarida ro'y berayotgan cho'llanish jarayonining ko'lami, intensivligi shuni ko'rsatmoqdaki, agarda bu jarayonni sekinlashtirish, oldini olish, to'xtatish tadbirlari ishlab chiqilmasa bir necha o'n yillar ichida tog' landshaftlarining katta qismi yalong'och qoya toshli cho'llarga aylanadi va buning ekologik oqibati juda xavfli bo'ladi. Bu o'ta dolzarb ekologik muammo uchun cho'llanish dinamikasini miqdoriy baholaydigan dala eksperimental ishlari olib borish, yangi aerokosmik, geoinformatsion, kartografik va boshqa zamonaviy metodlardan foydalangan holda cho'llanishni oldini olish bo'yicha kompleks tizimli yondashish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abbasov S.B. Qizilqum cho'li landshaftlari dinamikasi va ekologiyasi. Monografiya. Samarqand. SamDU nashriyoti, 2019. 176 b.
2. Abbasov S.B Cho'llanish muammolari. O'quv qo'llanma. Samarqand, 2019, - 159 b.
3. Adilova O.A. G'olibdin tog' yaylovlari cho'llashishining sabab va oqibatlari.// Geografiya va geografiya ta'limi yoshlar nigohida: kecha, bugun, yertaga. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Toshkent, 2008-B. 310-311
4. Alibekov L.A. Inson va tabiat. Darslik. "SamDU nashriyoti". 2020.

5. Алибеков Л.А. Феномен процесса опустынивания в аридных зонах. //Проблемы опустынивания в аридных зонах, - Самарканд, 2000. - С, 9-12.
6. Drenje.N.E. Desertification: symptom of a crisis//Desertification: process, problems, perspectives. Univ.of Arosone Tuscon.1976.
7. Зонн И.С., Орловский Н.С. Опустынивание. Стратегия борьбы. Ашхабад: Илим, ТССР, 1984
8. Raxmatullaev A., Adilova O. Tog'larda cho'llanish jarayonini tayanch-tajriba uchastkalar yordamida o'rganish metodikasi.// O'zbekiston Geografiya jamiyati. 43-jild.– Toshkent, 2014.-В. 3-5.